



## XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «29» июль

VI-49-114-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**Sho'rchi tumani mahalliy budjetining 2022 yil 2-choragi daromadlarining harajatlaridan oshgan qismi mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risidagi VI-48-85-8-120-K/22 qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-sonli Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman mahalliy budjetining 2022 yilning 2-choragi daromadlarining xarajatlardan oshgan qismi mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risida xalq deputatlari Sho'rchi tumani Kengashi,

### **QAROR QILADI:**

1. Sho'rchi tumani mahalliy budjetining 2022 yil 2-choragi daromadlarining harajatlaridan oshgan qismi mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risidagi VI-48-85-8-120-K/22 qarorining 1-bandi 9-qismida ko'rsatilgan tuman hokimligiga xizmat avtomashinalariga ehtiyot qismlar xarid qilish xarajatlari uchun 30 700 000 so'm mablag'dan iqtisod qilingan 10000000 so'm mablag'ni tuman hokimligining qo'riqlash xizmati uchun ajratilsin;

2. Tuman budjetining qo'shimcha manbalaridan mablag' oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek, ushbu mablag'larni ajratish uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

3. Mahalliy budjetning qo'shimcha shakllangan mablag'lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o'xshash kechiktirib bo'lmaydigan

choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

4. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish harajatlari uchun yo‘naltirishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

5. Tuman budjetining 2022-yilning har choragida daromadlarining harajatlaridan oshgan qismi mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman hokimligi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Bo‘ranov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi**



**Xudoyberganov B.X**